



## NAVOIY VILOYATI TOMDI TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 2-iyun

91-5-75-Q/25

Tomdi tumani hokimligi

### **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-fevraldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘qitishda tadbirkorlik subyektlarini jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-78-son qarori ijrosini ta’minlash haqida**

Tumandagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish, maktabga tadbirkorlik subyektlarini manfaatli hamkorlik asosida jalb etish maqsadida,

#### **QAROR QILAMAN:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-fevraldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘qitishda tadbirkorlik subyektlarini jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-78-sonhamda Navoiy viloyati hokimining 2025-yil 21-fevraldagi 59-5-0-Q/25-sonli qarorilari ijro uchun qabul qilinsin.

2.Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (M.Quljanov):

Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘limi (A.Duysenov) bilan hamkorlikda 2025-yildan boshlab o‘quvchilarni ularning iqtidori va qiziqishlariga mos kasb-hunarga yo‘naltirish, zamonaviy kasblar bilan yaqindan tanishtirish maqsadida 8-sinf o‘quvchilari uchun sanoat, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish sohalaridagi korxona va tashkilotlarga ekskursiyalar tashkil etsin;

har yili 1-aprelga qadar kelgusi o‘quv yilida kasb-hunarga o‘qitish joriy etiladigan maktablar ro‘yxatini shakllantirsin va tasdiqlasin;

har yili birinchi mayga qadar tuman hokimi bilan kelishilgan holda, o‘quvchilarning darsdan bo‘sh vaqtlarida kasb-hunarga o‘qitish joriy etiladigan maktablarga tegishli bo‘sh binolarning manzilli ro‘yxatini shakllantirib, Savdo-sanoat palatasi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga taqdim qilish uchun tuman hokimligiga kiritsin;

2025/2026-o'quv yilida tajriba-sinov tariqasida o'quvchilarni darsdan tashqari vaqtlarida kasb-hunarga o'qitishda tadbirkorlarni jalb qilish amaliyotini joriy etsin.

3.Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi(M.Quljanov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Abdimalikov)bilan birgalikda:

kasb-hunar o'qitish tashkil etilgan maktablarni mahalliy budjet mablag'lari hisobidan zarur jihoz va xomashyo bilan ta'minlashi;

tadbirkorlik subyektlari tomonidan kasb-hunarga o'qitish tashkil etilgan maktablarning 10-11-sinf o'quvchilarining ularning ota-onasi yoki o'rnini bosuvchi shaxslardan birini xabardor qilish asosida kasb-hunarga o'qitish jarayonida mehnat qonunchiligiga muvofiq tadbirkorlik subyektlarida belgilangan oylik ish haqining kamida 50 foizi miqdorida ish haqi olishini tashkil etsin.

4.Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (M.Quljanov), tegishli bo'lim,korxona va tashkilotlar o'zlari qabul qilgan hujjatlarini ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

5.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari N.Beknazarov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**O.Umarov**